

Qurilish sohasidagi ishlar tanqidiy muhokama qilindi: Ayrim rahbarlar ishdan olindi



Bugun viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov rahbarligida videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Yig'ilishda ijro intizomi, qurilish sohasida yo'l qo'yilgan kamchiliklar, maktablarni yangi o'quv yiliga tayyorlash va boshqa muhim masalalar muhokama qilindi.

Prezident Farmon va qarorlari, topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, yig'ilish bayonlari hamda hududlarda o'tkazilgan o'rganishlar davomida berilgan topshiriqlar ijrosi tahlil qilinib, ijro intizomiga qat'iy rioya qilmaganligi, topshiriqlar ijrosini to'liq ta'minlamaganligi uchun viloyat hokimining tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlari ogohlantirildi.

Qurilish sohasida yo'l qo'yilgan kamchiliklar keskin tanqidiy ruhda muhokama qilindi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etmagan, o'z vazifasini lozim darajada bajarmaganligi uchun "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK direktori, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i, Mintaqaviy yo'llarni qurish buyurtmachi xizmati DUK Surxondaryo filial direktori ishdan olindi.

Yig'ilishda kun tartibidagi barcha masalalar tanqidiy tahlil qilinib, mas'ullarning axborotlari tinglandi. Yo'l qo'yilgan kamchiliklar ko'rsatib o'tilib, ularni bartaraf etish bo'yicha muddat va vazifalar belgilab berildi.

Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati